

## PEDAGOGNING MAQOMI TO'G'RISIDAGI QONUNNING MAZMUN- MOHIYATI

Samanova Shaxlo Boxtiyarovna

f.f.d (PhD). dotsent, UrDPI, Urganch,

Yo'ldashova Sevara Nuraddin qizi

UrDPI 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397025>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogning maqomi to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyati, pedagogning jamiyat va yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi o'rni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, pedagogning maqomi, pedagogning huquqlari, pedagogning majburiyatlari, zamonaviy pedagog.

## THE ESSENCE OF THE LAW ON THE STATUS OF A TEACHER

**Abstract.** This article describes the essence of the law on the status of the pedagogue, the role of the pedagogue in society and youth education.

**Key words:** Pedagogue, status of a pedagogue, rights of a pedagogue, responsibilities of a pedagogue, modern pedagogue.

## СУТЬ ЗАКОНА О СТАТУСЕ ПЕДАГОГА

**Аннотация.** В статье раскрыта сущность закона о статусе педагога, роль педагога в обществе и образовании молодежи.

**Ключевые слова:** Педагог, статус педагога, права педагога, обязанности педагога, современный педагог.

Yoshlar ta'lim va tarbiyasini pedagog faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning turli sohalari rivojlanishini ta'minlash yetuk mutaxassislariga bogliq bo'lgan. Soha mutaasislarini tayyorlashda pedagoglarning o'rni katta. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak dastlab pedagog tushunchasi Yunonistonda paydo bo'lganligi barchamizga ma'lum. Uning asosiy vazifasi bolani yo'lda kuzatib borish bo'lgan, vaqt o'tgach bu tushuncha ta'lim va tarbiya beruvchi shaxslarga nisbatan ishlatish odat tusiga kirgan .Pedagog barcha davrlarda eng ulug' zot bo'lgan, ammo so'nggi davrlarda pedagog shaxslarni o'z kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan turli ishlarga jalb qilish(obodonlashtirish, paxta yig'im-terimi, turli tadbirlarda fon) ta'lim-tarbiya borasidagi asosiy vazifalaridan uzoqlashtirdi, oxir-oqibat jamiyatda yetuk kadrlar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.Mutaxassislar fikriga ko'ra, dunyoning eng yaxshi ta'lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Ularning bunday natijaga erishishlarida nimalar

sabab bo'lgan. Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo'q. Hamma maktab davlatga tegishli bo'lib, ular bir xil moliyalashtiriladi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega;

Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qo'yilmaydi;

Finlandiya maktablarida bolalar juda ko'p insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida o'z fikriga ega bo'lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o'rgatadi;

Bir fanni boshqa fanlar o'rnida chuqurroq o'rganish ma'qullanmaydi. Masalan finlar matematikani san'atdan ko'ra chuqurroq o'rganish kerak deb hisoblamaydi;

Finlandiyada "o'qituvchi" kasbi – obro'li kasb hisoblanadi. Oliy ta'lim maskanlarida o'qituvchi bo'lish ishlashga juda katta konkurs mavjud. Aynan pedagoglarga berilgan e'tibor jihatidan ham ular bunday natijaga erishgan bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilanganligi ham diqqatga sazovor. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyaning 52-moddasida ham aynan pedagoglarning maqomi qonuniy tasdiqlangandi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Bundan tashqari mamlakatimizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchi-pedagoglar faoliyatini muhofaza qilish maqsadida 2024yil 1-fevralda O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 901-sonli Qonuni qabul qilindi.

Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Jumladan, ushbu qonunning 2-3-moddasiga ko'ra "" belgilab qo'yilgan.

Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Shuningdek pedagog shaxslardan turli xil obodonlashtirish ishlaridan foydalanmaslik va boshqa ishlarga jalb qilinmasligi qonun bilan kafolatlandi.

Bundan tashqari, pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, xususan, ish haqidan uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish mumkin emas.

### **Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni cheklash**

Yangi qonunga ko'ra, quyidagi shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi:

- qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar;
- qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar;
- psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslar.

Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilish man etiladi.

- Pedagog xodimlar — kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida o'z sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish bilan bog'liq ishlar yuzasidan Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

- Ular kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida pedagog xodimlarning huquqlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan Ma'muriy sudlarga shikoyat qilganda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

- Ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir.

- Pedagogning huquqlari-
- O'zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinadi. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar beriladi.

- Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

- Pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlar ro'yxati tegishincha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

- Pedagogning kasbiy standartlari-
- Ta'lim tizimida ishlayotgan pedagogning kasbiy darajasiga doir talablar Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida hamda pedagogning kasbiy standartlarida belgilanadi.
  - Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkin.
  - Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish uchun jalb etishi mumkin.
  - Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:
    - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish;
    - belgilangan tartibda mualliflik dasturlarini va o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko'rsatish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanish;
    - kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;
    - o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi davlat axborot-resurs hamda axborot-kutubxona markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;
    - davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish;
    - ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, tajriba-sinov faoliyatida ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;
    - qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijodiy ta'vil olish;
    - ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
    - o'z kasbiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagoglarning jamoat birlashmalariga birlashish va ularda ishtirok etish;
    - o'z kasbiy faoliyatiga g'ayriqonuniy ravishda aralashuvdan himoyalani;
    - pedagogik faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash;

- ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;
- davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tish (davlat ta'lim tashkilotlari uchun);
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.
- Pedagog qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- Pedagog o'zining kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida o'z sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish uchun sudga da'vo arizasi bilan muvojaat qilgan, shuningdek o'z huquqlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilgan taqdirda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

Pedagogning huquqlari bilan bir qatorda majburiyatlari ham mavjud.

Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;

o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;

majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Bular zamonaviy pedagogning huquqlari ,majburiyatlari edi. Aslida zamonaviy pedagog

kim?

Zamonaviy pedagog - bu psixolog, rassom, do'st va maslahatchi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan shaxs. O'qituvchi kun davomida ko'p marta qayta tug'ilishi kerak va o'z ishini qanchalik ishonarli qilsa, natija shunchalik aniq bo'ladi. Zamonaviy pedagog – ijodkor, mehnatkash, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yuvchi, o'z faoliyatida eng so'nggi uslubiy ishlanmalardan foydalanadigan shaxs. Zamonaviy pedagog - o'z Vatanining vatanparvari. Mamlakat bizga eng qimmatli narsa – kelajagini ishonadi. Zamonaviy pedagog bolalar va ularning ota-onalari uchun oila bilan birgalikda ta'limning mas'uliyatli vazifalarini hal qilishda vakolatli bo'lishga chaqiriladi. Zamonaviy o'qituvchining vazifasi: ijobiy, ijodiy, ochiqko'ngil shaxsni tarbiyalash. Natijalaringizni bashorat qilishingiz va baholashingiz, mustaqillik tashabbusini rivojlantirishingiz kerak. Har bir bolaning individual qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish. O'qituvchi kasbi zamonaviy jamiyat hayotidagi eng muhim va ahamiyatli kasblardan biridir. Pedagog esa bola juda yoshligidanoq muloqot qilishni boshlaydigan o'qituvchidir. Butun jamiyatimizning kelajagi esa zamonaviy pedagog kichik yoshlarga nima qo'yishiga bog'liq. Umid qilamanki pedagog kadrlarga berilayotgan bu kabi imkoniyat va imtiyozlardan ular to'g'ri foydalana oladilar va ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy qaraydilar.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 901-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-6786401>
3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/4084.htm>
4. file:///C:/Users/ADMIN/Downloads/\_Xalq%20so'zi\_%20gazetasi-28-2024-02-07.pdf